

INTEGRATIV TIBBIYOTNING ILMI RUHIY TIB (PSIXIATRIYA) FANIDA "KISHI QANDAY QILIB O'ZIGA O'ZI ZULM QILAYOTGANINI KASHF QILISHI" HAQIDA

Alfraganus university Klinik
fanlar kafedrası, Assistenti

Azimov Doniyor

Annototsiya: Hiltarning kiprik follikulalariga kirib, ularni o'tkir, qirrali va dag'allashtiruvchi-qo'pol qilib ichkariga aylantiradi. Buning natijasida sodir bo'lgan ishqalanish juda og'riqli kechadi. Videha Hakim aytishicha: "Bu illatning paydo bo'lishi ko'z qovoqlarining chegaralariga g'ayritabiiy hiltarning o'rnamishini tajribasida ko'rganini" aytadi. Inverted kirpiklar, sovuq qotish, sovuq oyoqlari hissi, tez-tez, rangsiz va ko'p miqdorda siyish, och va nam til, chuqur-zaif puls.

Kalit so'zlar: ushlanib qolinadigan istaklar, uyqu, katta hojat, kichik hojat, jismoniy, zehniy, vokal zulmlar, nazariy idrok, aktiv holat, badaniy quvvat, tug'ma savdo, xiltlar g'alayoni.

Ayurvedaga ko'ra ushlanib qolinadigan va ushlanib qolinmaydigan istaklar mavjud. Ushlanib qolinmaydiganlarga, uyqu, katta hojat, kichik hojatlar kirsar, ushlanib qolinadiganlarga Zulm va ruhiy (psixologik) nuqsonlardan parhezlar kiradi.

Hakim Laghu Vagbhataga ko'ra "o'ziga o'zi zulm qilishlikni" ushlanib qolinadiganlar deb atalib, ularni ushlab qolish manfaati dunyo va o'limdan keyingi hayotda saodatga erishishdir deydi. Va u 10 xil zulmlarni sanaydi ruhshunoslikda.

Dalillarga asoslangan Ayurvedik Psixiatriyada esa bular 3 ga bo'linadi

1. Jismoniy zulmlar: Zino, O'g'rilik kabilar
2. Zehniy zulmlar: Hirs, qayg'u, g'azab, behayolik, dunyoparastlik
3. Vokal zulmlar: shiddatli gapirishlar, g'iybat, yolg'on kabilar

Abu Bakr ar-Roziy o'zining Psixologiyaga oid asari "Kitab al Tibb al Ruhani" (Духовная медицина) asarining "Kishi qanday qilib o'ziga o'zi zulm qilayotganini kashf qilishi****" bobida shunday deydi:

"Shuning uchun u bu masalada davomiy sherik va muntazam hamroh bo'lgan oqil kimsaga suyanmog'ligi darkor. U [kishi]dan o'ziga zulmlari xususidagi bilgan narsalarini aytib berishini rijo etishi (yalinib yolvorishi), isror etmog'i (nazokat ila turib olish), talab qilishi lozim hamda shu yo'l bilan u o'zini eng rag'batlantiruvchi orzuyigidek narsani qilishini va unga nima ulkan manfaatli ta'sirligini anglab yetajak."

***Jolius (Galen)ning ayni nomdagi asari "De priorum animi cuiuslibet affectuum dignotione et curatione/ De animi cuiuslibet peccatorum dignotione et curatione" dan parchalar keltirilgan.

Ibn Sino "Kitab al nafs"ida Roziydan bir qadam yuqoriga ko'tarilib, "o'ziga o'zi zulm qilayotgan kimsalar"ni shunday ilmiy izohlaydi:

Axloqni badaniy quvvatlarga o'ziga xoslab ham kiritish mumkin. Ammo agar keyingisi (nazariy idrok**) ustunlik qilsa ular aktiv (faol) holatdadir, unda amaliy idrok esa passiv holatda [bo'lgan bo'ladi]. Shunday qilib, o'xshash narsalarning ikkalasida ham axloqni yaratadi. Biroq garchi amaliy idrok ustunlik qilsa-yu, u aktiv (faol) holatda, badaniy quvvatlari esa passiv holatda bo'ladi va bu esa qat'iy ma'noda axloqdir.

Ibn Sinoga ko'ra

** nazariy idrok - umumiy qabul qilingan fikrlardir, masalan yolg'on va zulm qilishlik yovuzlikdir deb nazariy tushungani kabi. U yomon axloqni passiv dispozitsiyadan qanday namayon bo'lishini ko'rsatib berib, na'munali axloqni esa quvvatlarini itoatkorlik va passivlikdan uzoqlashishi bilan tanaga hokim bo'lishdadir deydi.

Abu Zayd al-Balxi "Masolih al abdan va al anfus fit tib"ida bunday holatlarni vasvasaga bog'lab, xiltlardan savdo g'alabasidan deb 2 ga tasmiya qiladi:

1. Tug'ma savdoning boshqa xiltlardan ziyodaligidan
2. Xiltlarni g'alayonidan (disproportsiyasidan) deydi

Xitoy Xalq tabobatiga ko'ra bunday holatni "Zehn obstruksiyasi" deb atalib,

Etiologiyasi:

- Qi (Tsi) turg'unligi
- Qon va balg'am turg'unligidan bo'ladi

Zehn obstruksiyasida aqliy chalkashlikni keltirib chiqaradi, chunki bu obstruksiya ongning fikrlash, xotira, tushunish, kontseptsiyalash, amaliy tadbqiq etish va tushunish faoliyatini buzadi.

Emotsional darajada, zehn obstruksiyasi qilganda, ma'lum bir tushuncha yo'qoladi, odam ruhiy chalkashliklarni his qiladi va o'zini qandaydir mantiqsiz tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Bakr ar-Roziy "Kitab al Tibb al Ruhani" (Духовная медицина). Toshkent. 1980
2. Ibn Sino "Kitab al nafs". Kembridj nashriyoti 1985 yil
3. Vagbhataning "Ashtanga Hridayam" 3-jild. Chaukhambha nashriyoti. 2010.
4. Galeni "De propriorum animi cuiuslibet affectuum dignotione et curatione. Niderlandiya. Brill Nashriyoti, 1970 yil
5. Abu Zayd al-Balxi "Masolih al abdan va al anfus fit tib" Turkiya Yozma asarlar Idorasi. 2022